



UDK: 94(575.1)"13/15"

*Eshbolta QOBULOV,*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d*

*E-mail [eshbolta@mail.ru](mailto:eshbolta@mail.ru)*

*Kamoliddin QOBULOV,*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b., PhD*

*TerDU professori, tarix fanlari doktori S.Tusunov taqrizi asosida*

## TERMEZ AND CHAGHANIYAN DURING THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Annotation

This article analyzes the role of Termez and Chaghaniyan regions during the reign of Amir Temur and the Timurids period based on historical sources, their direct connection with his military and political activities, and the processes of urban development, trade, and cultural growth in the Timurids era. The study is based on sources such as "Temur Tuzuks" and Sharaf al-Din Yazdi's "Zafarnama".

**Keywords:** Amir Temur, Timurid period, Termez, Chaghaniyan, Temur Tuzuks, Zafarnama, historical sources, urban development, trade routes.

## ТЕРМЕЗ И ЧАГАНИЁН В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников анализируется роль территорий Термеза и Чаганиёна в политической, военной, экономической и культурной жизни эпохи Амира Темура и Тимуридов. В частности, рассматривается стратегическое значение данных регионов в процессе прихода Сахибкрана к власти, непосредственная связь деятельности Темура с этими территориями, а также процессы градостроительства, торговли и культурного развития в период правления Тимуридов. Научные выводы исследования сформулированы на основе таких источников, как «Уложения Темура», «Зафар-наме» Шарафуддина Али Язди и др.

**Ключевые слова:** Амир Темура, эпоха Тимуридов, Термез, Чаганиён, Уложения Темура, Зафар-наме, исторические источники, градостроительство, торговые пути.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ANIYON

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida Termiz va Chag'oniyan hududlarining siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Sohibqironning hokimiyat tepasiga kelishida mazkur hududlarning strategik ahamiyati, Temur faoliyatining ushbu hududlar bilan bevosita bog'liqligi, shuningdek, temuriylar davrida shaharsozlik, savdo va madaniy rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va boshqa manbalar asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, Termiz, Chag'oniyan, Temur tuzuklari, Zafarnoma, tarixiy manbalar, shaharsozlik, savdo yo'llari.

**Kirish.** Amir Temur va temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davr nafaqat siyosiy markazlashuv va yirik imperiyaning shakllanishi, balki iqtisodiy, madaniy va shaharsozlik jarayonlarining yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Mazkur tarixiy jarayonlarda alohida hududlarning tutgan o'rni masalasi ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Termiz va Chag'oniyan vohalari Amir Temur faoliyatida muhim strategik va siyosiy hududlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi uzoq davom etgan siyosiy va harbiy kurashlar natijasida yuz bergan. Aynan shu jarayonlarda Termiz va uning atrofidagi hududlar muhim tayanch nuqtalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Temurning dastlabki harbiy yurishlari, qo'shin to'plashi va raqiblariga qarshi kurashlarida ushbu hududlarning geografik joylashuvi va strategik imkoniyatlari muhim rol o'ynagan.

Bundan tashqari, Termiz va Chag'oniyan nafaqat harbiy-siyosiy, balki diniy va mafkuraviy jihatdan ham muhim markazlardan biri bo'lgan. Sohibqironning diniy ulamolar va

sayyidlar bilan aloqalari, xususan Termizda mashhur diniy arboblilar bilan uchrashuvlari uning siyosiy faoliyatida muhim o'rin egallagan. Bu esa mazkur hududlarning Temur davridagi ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni ham belgilab beradi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda tarixiylik metodi asosida voqealar o'z davri kontekstida tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada manbashunoslik metodi muhim o'rin egalladi. Asosiy e'tibor yozma tarixiy manbalarni tahlil qilishga qaratildi. Xususan, "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari hamda boshqa tarixiy va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, ulardagi ma'lumotlar o'zaro solishtirildi va ilmiy asosda umumlashtirildi.

Bundan tashqari, qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi. Ayniqsa, Termiz va Chag'oniyan hududlarining harbiy-strategik hamda iqtisodiy ahamiyati turli manbalar asosida solishtirma tarzda tahlil qilindi.

Maqolada tizimli yondashuv metodi ham qo'llanilib, Termiz va Chag'oniyan hududlari yagona tarixiy-madaniy makon sifatida kompleks o'rganildi. Shuningdek, tarixiy-geografik tahlil metodi yordamida hududlarning geografik

joylashuvi, savdo yo'llari, kechuvlar va strategik nuqtalar (masalan, Amudaryo kechuvlari, Temir darvoza)ning tarixiy jarayonlardagi o'rni ochib berildi. Natijada, yuqoridagi metodlar uyg'unligi asosida Amir Temur va temuriylar davrida Termiz va Chag'oniyon hududlarining tarixiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilindi va ilmiy xulosalar chiqarishga erishildi.

**Natijalar va muhokama.** Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Temurning otasi Amir Berkalning o'g'li Tarag'ay Bahodir Qozonxon qo'shinida xizmat qilgan va uning mulki Xoja Ilg'or qishlog'i bo'lgan. 1360 – 1370 yillar Temurning tarixga Movarounnahr taxtini egallash uchun kurash yillari hisoblanadi. 1362 yilga kelib bir qancha janglarda tajribali sarkarda sifatida shakllangan Temur Movarounnahr taxtini egallash uchun qat'iyat bilan Balx tog'larida qo'shin to'play boshladi. Qo'shin sonini ko'paytirib, Aloyu qal'asini qo'lga kiritdi. Qal'adagi 300 askar ham unga qo'shildi. Temur tezroq o'z yurtiga qadam-baqadam yaqinlashish uchun Darayi Sufga keldi. Bu yerda unga Tuman bahodirning o'g'li Imlis ikki yuz otlig'i bilan kelib qo'shildi. Mana shu yerda turib Temur Termizda Jete lashkarlari xalqni talash bilan mashg'ul ekanligini eshitdi. Shundan so'ng kutilmaganda Jete lashkarlariga zarba berish uchun Daragezga keladi. Ayni shu chog'da mo'g'ullar bilan yovlashib Samarqand tog'lari va Qoratog'da yashirilib yurgan chig'atoy beklaridan besh nafari amir Sulaymon barlos, amir Muso barlos, amir Jaku barlos, amir Jaloliddin va amir Hinduka barloslar Jete amirlaridan yuz o'girib, o'z askarlari bilan eski Termizga kelib tushdilar. Ular Temur huzuriga Tulan-Bug'ani jo'natib, uning xizmatida bo'lishlarini ta'kidladilar. Ming otliq askarning ko'hna Termizda Temurga qo'shilishi uning g'alabasini ta'minladi [1].

Temurning Jete qo'shini boshliqlari ustidan g'alaba qozonganidan keyingi faoliyati yana bevosita Termiz va uning hududlari bilan bog'liq bo'lib, Sohibqiron "Tuzuklari"da shunday hikoya qilinadi. "Saltanatimni mustahkamlash uchun, to'plangan xazinadagi naqd pullar va (qimmatbaho) buyumlarni siphoga taqsimlab berishga va dastavval Qahlaqa qal'asini olishga qaror qildim. Termiz kechuvidan o'tib, Qahlaqa qal'asi tarafiga qorovullar jo'natdim. O'zim Jayhun bo'yida bir necha kun turdim va qorovul yuborib keladigan xabarni sabrsizlik bilan kutdim. Mening bu yerga kelganim haqidagi xabar llyosxo'jaga yetgach, Bekkikhning inisi Alachun bahodirni katta qo'shin bilan ustimga yubordi. Qorovullarim g'aflat uyqusida qolgan ekanlar, ularning yonidan o'tib, bildirmay, tun qorong'usida to'satdan ustimga hujum qildilar. Qarorgohim uch tomoni suv bilan o'ralgan yarim orolda joylashgandi. Yarim orol tashqarisida qurilgan bir necha chodir Jete lashkarlari tomonidan talon-toroj qilindi. Omon qolgan askarlar yarim orolga ko'chib o'tdilar. Men bo'lsam jangga shaylanib, tezlik bilan yarim orolning kirish qismiga bordim. Dushman mendan qo'rqqani sababli urushga botinib kirolmadi. O'n kungacha men shu yarim orolda turdim. So'ng u yerdan chiqib, suv bo'ylarida olachuq (chodir)lar tiktirib, Jete lashkarlarining qarshisida bir oycha kuzatib yotdim. Oxiri g'animni qo'rquv bosib, ortlariga qaytib ketdi[3].

"Temur tuzuklari"da Qahlaqa atamasiga Termizga yaqin qadimiy qal'alardan biri deb izoh berilgan. Amir Temur hukmronligi, undan oldin va keyingi davrlarga oid boshqa tarixiy manbalarda Termiz atrofida bunday nomdagi qal'aning mavjud bo'lganligi ta'kidlanmagan. Ammo Qahlaqa qal'asi qayerda joylashganligini "Tuzuklar"dagi satrlarni tahlil etib bilish mumkin.

Termiz kechuvidan o'tgan Temur, Qahlaqa tarafiga soqchilar yuborib, o'zi Jayhun bo'yida bir necha kun kutadi. Demak, Qahlaqa Termizdan ancha yiroq masofada joylashgan mavze.

"Tuzuklar"dagi Qahlaqa – "Temir darvoza"ning qadimiy turkiycha nomi [4]. Temir darvoza ayni Qahlag'a nomida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida tilga olingan [5]. Temur o'rtnashgan Termiz yaqinidagi Jayhundagi uch tomoni suv bilan o'ralgan orol – bu Payg'ambar oroli yoki Jizirati Usmon (Usmon oroli)dan bo'lak joy emas.

Termiz va Chag'oniyon yurtlari Temur va Amir Husayn o'rtasidagi 1366-1370 yillar oralig'ida muttasil bo'lib o'tgan kurashlar davomida ham muhim o'rin tutgan. Temurning Amir Husaynga nisbatan 1370-yili amalga oshirilgan harbiy yurish tarixda Termiz va Chag'oniyon viloyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini yaxshi bilamiz. Amir Temur hamisha Termiz va uning atrofida bo'lganida o'zining keyingi jangida sodir etiladigan harakatini yana bir bor sinovdan o'tkazish maqsadida qisqa muddat to'xtaydi. Termizga yaqinlashganida qorovullar uzoqdan dushmanning ilg'or qismini ko'rishadi. Temurbek Termizga uch farsax masofada bo'lgan Biyo qishlog'ida to'xtaydi. Bu haqida u "Temur tuzuklari"da quyidagicha qayd etgan: "Birinchisi davlat va saltanatimga bog'langan mening birinchi tuzugim Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim", degan fikriga e'tibor berishga to'g'ri keladi[3]. Chunki, Biyo qishlog'ida Amir Temur Makka-yu Mukarrama sayyidlarining boshlig'i Sayyid Baraka(Sayyid Muhammad al-Madiniy) bilan uchrashib, uning hamda sayyidlar, mashoyixlar, ulamolar, fozil kishilar duosini olib, otasining: "Alardin diniy, haquqiy, axloq masalalarini, harom bilan halolni ajratishni o'rgangin. Shuning uchun ham majlislarini shular bezab tursin", degan maslahatiga amal qiladi[8].

Xuddi shu uchrashuvda Sayyid Baraka hammaning ko'z o'ngida toj-u taxt va saltanat ramzi bo'lmish nog'ora bilan bayroqni Temurbekning qo'lga tutqazadi. Bu Oллоh va Islom dinining Amir Temurga nisbatan bergan ulug' qudrati edi. Butun Termiz, Xuttalon, Chag'oniyon, Balx, Hirot, Hisor, Kesh, Samarqand, Buxoro, Xorazm bo'ylab Temur deya hayqirayotgan qalandarlar, darveshlar vajahatlaridan uning dushmanlarining dami ichiga tushib ketadi.

Kim islom g'alabasini tilasa, o'sha Temur uchun ovoq bersin! Bunday hayqiriqlar Termiz, Chag'oniyon, Xuttalon, Balx shahrining har bir burchagida yangrardi. Shundan so'ng Sayyid Barakaga Amir Temurga buyuk kelajagini bashorat qiladi: "Muborak tili o'shal dam dunyo parvardigor belgilagan qismat va uning cheksiz inoyatining tarjimoni edi: chunki, bu bashorat qilib aytilgan so'zlarning na mazmunida o'zgarish na amalga oshishida kechikish bo'ldi" [1].

Amir Temur Sohibqiron Biyo qishlog'idagi marosimdan keyin bo'lg'usi jangga hozirlik ko'rish maqsadida Chag'oniyon viloyatining markazi Chag'oniyonga borib tushadi. Chag'oniyon ahli va beklari Amir Temurga sidqidildan xizmat qilib, katta miqdorda askar, oziq-ovqat, ot va chorva mollari hamda urush anjomlari yetkazib beradi. Amir Temur Chag'oniyonda bo'lgan vaqtda Kufton (Guftan, hozirgi Sherobod vohasi), Barmangan (ba'zi manbalarda Charmangan yoki Jarminkan, hozirgi Jarqo'rg'ondan 4 km janubi-g'arbdagi Kultepa shahri markazi), Xuttalon, Hisor, Temur qopug'idagi yerlardan katta miqdorda kuch to'playdi. Ana shu Oллоh bergan kuch-qudrat hamda Sayyid Baraka bergan qutlug' shohiy duo kuchi bilan aql-zakovatli mashhur sarkarda Amir Temur Balxni egallab, anchadan buyon unga bo'ysunishni istamayotgan Amir Husayn ustidan g'alabani qo'lga kiritadi.

1370-yilda Amir Temurning taxtga kelishi bayonida Said Baraka bilan birgalikda Termiz saidlari – aka-uka xudovandzodalar Abul Ma'li va Ali Akbarlar tilga olingan[9]. Ayni shu yildan boshlab Sohibqiron va Termiz saidlari o'rtasida yaqin munosabatlar yuzaga kelgan. Va aytish kerakki, Temur davlatida bu xudovandzodalar nufuzli shaxslar

hisoblanishgan. Amir Temur 1399 yilning 29 martida Hindiston yurishidan qaytib, Jayxundan kechib o'tadi. Bu jarayon Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida quyidagicha qayd qilingan: "Yakshanba kuni, oyning yigirmi birida choshtog'da sohibqiron kema bilan Jayxun suvidin kechib tushdi. Ul tushkon yerda amirzoda Ulug'bek va amirzoda Ibrohim mirzo va hazri muallo Bekisi Sulton va muxazzaroti tiniqismat va jalolat / Saroymulxonim va To'kalxonim va Tuman og'o va o'zga shahzodalar bila Samarqand akobirlari barcha o'truv kelib, muborak diydorig'a musharraf bo'lib, barcha duo qildilar. Va ancha kumish va oltun sochiqlar sochtalarkim, daryo yaqosi to'la kumush va oltun bo'ldi. Dushanba kuni (30.03.1399) Termizga kelib turdi. Xonzoda Aloal-mulkim nasabi sharifi hazrat Risolatqa, salll Allohu alayhi vasallamg'a tegardi, ul kun hazratqa to'y berdi va yaxshi peshkashlar tortdi" [3].

Shuni alohida qayd etish lozimki, Amir Temur din peshvolarini yoniga chorlab turgan, ul zotlar orasida Termiziylar ham bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy Qorabog'dagi 1403-1404 yil qishi voqealarini shunday bayon qiladi: "Sohibqiron Movarunnahr – Kesh, Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa joylardan mo'tabar zotlarni yig'di. Bu yerda Xovand zodagoni Termiziy, samarqandlik shayxul-islom Xoja Abd-al-Avval, Xoja Isom ad-Din, Keshdan Xoja Afzal va keshlik shayx ul-islom farzandlari Abul al-Hamiya va ar-Rahmon va mamlakatning boshqa vakillari bor edi" [3].

Amir Temur uchun qayg'uli damlarda ham uning yonida Termiziylar bo'lgani manbalarda qayd qilinadi. Jumladan, Amir Temurning nevarasi Muhammad Sulton vafot etganida uning yonida: "Movarounnar soridin Kesh va Samarqand va Buxoro va Termiz va o'zga mavozi'lardin sodot va akobir va ulamo va mashoyixlari va Termizning xovandzodalari Xoja Abdul Avval va Xoja Isomiddin va Xoja Afzal Kashshiy va Keshning shayxuislomining o'g'lonlari Abdul Hamid va Abdur Rahmon va o'zga buzurglar barcha kelib aza yetkurdilar. Va nasoyih qildilar va oyatu hadis bilan humoyun xotirini taskin berib, nasihat dedilar".

Amir Temur va temuriylar davriga oid tarixiy manbalarda yangi Termiz bilan bir qatorda Termiz qal'asi (ko'hna Termiz) ham ko'p marotaba tilga olingan. Mashhur arab sayyohi Ibn Battuta (1333 yil) davrida Chag'onrud (Surxondaryo)ning o'ng sohilida shakllangan Termiz Temur davrida yirik shaharga aylangan.

Sohibqiron saroyiga Kastiliya va Leon qiroli Genrix III nomidan elchi bo'lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo bu shaharni shunday ta'riflaydi: "Biz kelib tushgan Termid(Termiz) ancha-muncha aholi yashaydigan kattagina shahar ekan. Atrofi devor bilan o'ralmagan: bu yerda bog'rog'lar ko'p, suv mo'l edi. Shahar haqida men sizga shuni aytishim mumkinki, unga kirganimizdan so'ng shu qadar ko'p yurdikki, bizga ajratilgan binoga yetib kelganimizda batamom holdan toyib qolgan edik. Butun yo'l davomida har xil narsalar bilan savdoqilinayotgan gavjum maydonlar va ko'chalardan o'tdik. Termizda elchilarga katta izzat-ikrom ko'rsatishdi, hamma zarurnarsalar bilan ta'minlashdi, ularga shohi to'nlari kiygizishdi" [1].

Temur davrida Chag'oniyon o'lkasining markazi shahri – Chag'oniyon ham o'z mavqeini saqlab qolgan. Chag'oniyonning yana bir markazi – Navand hisoblangan. Bu shahar – Termiz, Chag'oniyon va Navandlar XV asrda o'z zarbxonasiga ega bo'lib, bu zarbxonalarda Temur va temuriylar davlati hududida muomalada bo'lgan dirham (mis tanga pul)lar zarb etilgan. Garchand XIV asrdan boshlab yangi shahar Chag'onrudning o'ng qirg'og'i bo'ylab shakllangan bo'lsa-da, ko'hna Termiz, ayniqsa, uning qal'a qismi Temur va temuriylar davrida harbiy istehkom hamda savdo markazi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Termiz qal'asining qayta tiklanishi temuriy Xalil Sulton farmoni asosida amalga oshirilgan. Xuroson hukmdori Shohrux Mirzoning Anxud va Balx viloyatlarida ta'siri kuchayishidan tahlikaga tushgan Xalil Sulton 1407-yilda Amudaryo yoqalab joylashgan Termiz qal'asini qayta tiklattirgan. So'nggi yillarda Termiz qal'asining Amudaryo yoqasida amalga oshirilgan arxeologik qazuv ishlari tufayli tarixda mavjud bo'lgan bu ma'lumotlar tasdiqlanmoqda.

Kichik Hindiston (G'arbiy Yevropa adabiyotida Kichik Hindiston va Eron oralig'idagi hududlar, ya'ni Afg'oniston, Belujiston va Mekron nazarda tutilgan)dan Samarqand sari yo'l olgan karvonlar Termiz va Yorgoh kechuvlaridan o'tib, "Temir darvoza" tomon yurganlar. Amir Temur va temuriyzodalar "Termiz darvozasi" deb nom olgan Chak-Chak dovoni yaqinidagi "Temir darvoza"ning nazoratini muttasil ta'minlab turganlar.

1404 yilning avgust oyida "Temir darvoza" orqali Samarqandga yo'l olgan ispaniyalik elchi de Klavixo safar xotiralari kundaligida shunday yozadi: «Ertasi kuni dushanbada elchilar guruhi baland tog'ning etagida dam oldilar. Bu baland togvning cho'qqisida xilma-xil naqsh va turli-tuman bezaklarga bezalib juda mohirona bunyod etilgan salbsimon bino joylashgan. Bu tog' juda baland, unda inson qo'li bilan yaratilgandek yo'lak bor, bu yo'lak – dara orqali uni kesib o'tish mumkin. Har tarafdin sip-silliq va bahaybat tog' cho'qqilari bo'y cho'zgan. Bu yo'lakning o'rtasida qishloq joylashgan bo'lib, uning tepasida qoyalar muallaq turgandek. Bu yo'l tog'larda «Temir darvoza» deb ataladi, bu yerlarda bundan boshqa yo'l yo'q. Bu darvoza Samarqand podsholigini Kichik Hindistondan qo'riqlaydi. Samarqand yerlariga ayni shu darvoza orqali kirib borilgan, shuningdek, Samarqand imperiyasi ahli ham Hindistonga boshqa joydan emas, xuddi shu yo'l orqali o'tib borishadi.

«Temir darvoza»ning egasi Temurbek hisoblanadi. Bu darvoza unga yil mobaynida juda katta foyda keltiradi. Samarqandga va undan shimoldagi yerlarga Kichik Hindistondan kelgan karvonlar ana shu darvozadan o'tadi» [1].

Amir Temur davri Termiz va Chag'oniyon tarixining yana bir xususiyati bu o'lkalarda tavallud topib, musulmon olamiga mashhur va mag'rub bo'lgan ilm ahli, avliyolarning nomlari chuqurlashtirilgan. Xususan, Al-Hakim Termiziy qabri ziyoratgoh joy sifatida XIV asrning 50-yillari oxirida, ya'ni «Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida tilga olingan. Al-Hakim Termiziyning izdoshi Abu Bakr Varroq mozori ham tarixiy manbalarda XIV asrdan boshlab uchraydi.

Termiz va Chag'oniyonning o'rta asrlar davri maqbaralarining aksariyat qismida qayta ta'mirlash ishlari XIV–XV asrlarda amalga oshirilgan. Payg'ambar orolidagi «Zul-Kifl», Tolpakchinordagi «Oq ostona bobo» shular jumlasidan.

Viloyatning saksondan ortiq obidasida XIV–XV asrlarga mansub ashyoviy manbalarning qayd qilinishi Temur va temuriylar davri Termiz va Chag'oniyon o'lkalari qishloq joylarida ham iqtisodiy hamda madaniy siljishlar yuz berganligidan nishonadir. Bu yodgorliklardan qazib olinayotgan daliliy ashyolar sifat darajasi bilan Chin chinnisiga tenglashgan sopol buyumlar, zargarlik namunalari, "me'moriy koshinlar Termiz va Chag'oniyon amaliy san'atining Temur davlati markaziy shaharlari madaniyati bilan hamohang taraqqiy etganligidan dalolat beradi". Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalar Samarqandni "Yer yuzining markazi"ga aylantirgan bir davrda termizliklar ham chetda qolmaganlar.

**Xulosa.** Umuman olganda, tadqiqot natijalari Termiz va Chag'oniyon hududlari Amir Temur va temuriylar davrida faqat ikkinchi darajali hudud emas, balki yirik harbiy-strategik tayanich, muhim savdo markazi, diniy-mafkuraviy markaz

hamda rivojlangan madaniy hudud sifatida shakllanganini ilmiy tadqiqotlar kelgusida hudud tarixini yanada chuqurroq asosda tasdiqlaydi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Rui Gonsales de Klavixo – Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy – Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Temur tuzuklari. – Toshkent: 2020.
4. Bo'riboy Ahmedov. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995.
5. Hofiz Abru. Zubdat at-tavorix. – Toshkent: Fan, 1992.
6. Ibn Battuta. Sayohatnoma. – Toshkent: Sharq, 1993.
7. Vasiliy Vladimirovich Bartold. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1963.
8. Beatrice Forbes Manz. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989
9. René Grousset. The Empire of the Steppes. – New Brunswick: Rutgers University Press, 1970.
10. Shamsiddin Kamoliddin. O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.